




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

12 may, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 12 may 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,139% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,032% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,308% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasayib va 9,268% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 5,976% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,895% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,317% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,264% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,357% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,233% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,57-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,63% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasayib— 3,60% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,234% (3 oylik) va 2,472% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,589% (6 oylik) va 2,248% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 1119,1 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 347,5 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 993 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 141 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,58% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




12.05.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Octobank* da qayd etilgan – 12 150 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 160 – 12 210 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *SQB* da qayd etilgan – 12 140 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 120 – 12 085 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



Dollar o'z pozitsiyalarini boy bermoqda

Hafta davomida USD/RUB kursi mo'tadil pasayish va nisbiy barqarorlikni namoyish etdi. Davr boshida dollar 76,5 rubl atrofida savdo qilingan bo'lsa, keyinchalik kurs bosqichma-bosqich pasayib bordi. Rublning asosiy mustahkamlanishi valyuta bozorida barqarorlik fonida haftaning o'rtalariga to'g'ri keldi. Xususan, 5 va 6-may kunlari kotirovkalar 75,8 darajasida qayd etildi. 7–8-may kunlariga kelib, kurs 74,8 rublgacha tushdi va o'zgarishsiz qoldi. Umumiy dinamika AQSh dollariga nisbatan rublning o'rtacha mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.



Yuan rublga nisbatan barqarorligini saqlab qolmoqda

Ko'rib chiqilayotgan davrda RUB/CNY kursi nisbatan barqarorligicha qoldi. Asosiy tebranishlar minimal darajada bo'lib, tor diapazonda shakllandi. 6-may holatiga ko'ra ko'rsatkich 10,6 ni tashkil etdi, shundan so'ng kurs biroz pasaydi. 7 va 8-may kunlari qiymat 10,5 darajasida o'zgarishsiz saqlanib turdi. Ushbu dinamika valyuta bozorida keskin o'zgarishsiz barqarorlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.



EUR/USD: Bosqichma-bosqich tiklanish

Hafta davomida EUR/USD valyuta juftligi sezilarli bo'lmagan tebranishlar bilan mo'tadil o'sishni ko'rsatdi.

Davr boshidagi 1,1756 darajasidan so'ng, yevro AQSh dollariga nisbatan asta-sekin mustahkamlanib bordi. Eng sezilarli o'sish 6-may kuni kuzatildi — kurs 1,1796 darajasiga yetdi. Shundan so'ng, bozorda kichik korreksiya va barqarorlashuv bosqichi boshlandi. 8-mayga kelib, ushbu juftlik 1,1785 darajasida savdo qilindi. Umuman olganda, bozor dinamikasi yevroga bo'lgan talabning barqarorligini va dollarning biroz kuchsizlanishini aks ettirmoqda.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



Oltin bozori: May oyi boshidagi fundamental o'sish



2026-yil may oyi boshida oltin bozorida kotirovkalarning ishonchli o'sishi kuzatildi. Jahon bozorlaridagi beqarorlik va investorlarning "himoya aktivlari"ga bo'lgan qiziqishi ortishi natijasida oltinga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi.

Hafta davomida narxlar kichik korreksiyalarga qaramay, ijobiy dinamikani namoyish etdi. Ayniqsa, haftaning o'rtalarida faol xaridlar fonida keskin ko'tarilish qayd etildi. Davr yakuniga kelib, oltin narxi eng yuqori nuqtaga yetdi.

Brent nefti talab pasayishi fonida o'z pozitsiyalarini boy bermoqda



Hafta davomida Brent markali neft narxlarida pasayish dinamikasi kuzatildi. Narx 114,44 darajasidan so'ng, davr o'rtalaridagi keskin tebranishlar bilan birga bosqichma-bosqich pasayib bordi.

Eng sezilarli pasayish haftaning o'rtalariga to'g'ri keldi — bu vaqtda bozor talabning kamayishi bosimi ostida zaiflashdi. 7-may sanasiga kelib, kotirovkalar 100 dollarlik ko'rsatkichga yaqinlashdi. 8-may kuni esa narx 101,28 darajasini tashkil etib, biroz barqarorlashuvni ko'rsatdi. Umuman olganda, qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, bozorda pasayish trendi saqlanib qoldi.

Gaz narxlar bosim ostida qolmoqda



Hafta davomida TTF bo'yicha gaz narxlar qisqa muddatli tebranishlar bilan birga mo'tadil pasayishni ko'rsatdi.

Davr boshidagi barqarorlikdan so'ng, Yevropada talabning kamayishi ta'sirida bozorda pasayish kuzatildi. Haftaning o'rtalariga kelib, kotirovkalar 51,6 atrofidagi minimal ko'rsatkichlargacha tushdi. Shundan so'ng, biroz barqarorlashuv kuzatilib, davr yakuniga kelib narx 52,0 darajasigacha tiklandi. Umuman olganda, bozor yuqori narxlarning o'zgaruvchanligini saqlab qolgan bo'lsa-da, unda pasayish tendensiyasi ustunlik qildi.

Yangiliklar

ING Bank yangi avlod AI-maslahatchisini sinovdan o'tkazmoqda

2026-yilning may oyidan boshlab, bank mijozlari bevosita mobil ilova orqali moliya masalalari bo'yicha professional maslahatlar olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sun'iy intellekt tizimi foydalanuvchining xarajatlarini tahlil qilgan holda, mablag'larni tejash va samarali boshqarish bo'yicha individual tavsiyalar ishlab chiqadi.



Deutsche Bank biometrik bankomatlarni ishga tushirmoqda

Deutsche Bank mablag'larni yechib olish jarayonini yanada osonlashtirish maqsadida biometrik texnologiyalarni joriy etmoqda. Endilikda mijozlar naqd pul olish uchun bank kartasining o'rniga yuz skaneri yoki barmoq izidan foydalanishlari kifoya.



Intesa Sanpaolo o'zining ilk «yashil» raqamli ofisini ochmoqda

2026-yilning may oyidan boshlab, bank to'liq elektron hujjat almashinuvi tizimiga o'tadi va energiya sarfini optimallashtirish uchun ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni boshlaydi.



Halyk Bank ovozli AI-banking tizimini joriy etmoqda

Halyk Bank mijozlarga xizmat ko'rsatishni yanada soddalashtirish maqsadida sun'iy intellektga asoslangan ovozli boshqaruv tizimini tatbiq qilmoqda. Endilikda foydalanuvchilar mobil ilova orqali faqat ovozli buyruqlar yordamida pul o'tkazmalarini amalga oshirishlari va turli xizmatlar uchun to'lovlarni bajarishlari mumkin.

